

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 9-aprel № 6 (1568)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

YANGI BOSQICHGA QADAM

"O'zmetkombinat" va Tojikiston metallurgiya sohasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

2 ➤

MANFAATLAR TO'QNASHUVI

Manfaatlar to'qnashuvi ayrim hollarda oshkora ko'rinishda namoyon bo'lsa, ba'zan yashirin tarzda yuzaga kelishi mumkin.

3 ➤

AQL VA IMON

Inson yasagan narsalardan million martadan ham buyuk va tartibli bu olam qanday qilib o'z-o'zidan paydo bo'lgan?

4 ➤

HALOLLIK VA VATANPARVARLIK:

TIKLANISH VA TARAQQIYOT ASOSI

Sanoat korxonalari mamlakat iqtisodiyotining ustuni hisoblanadi. Ayniqsa, metallurgiya sohasi nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki minglab insonlar bandligi va farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, "O'zmetkombinat" Ajda so'nggi yillarda kuzatilgan o'zgarishlar nafaqat korxona, balki butun tarmoq uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inqiroz

O'tgan yil va undan avvalgi bir necha yil "O'zmetkombinat" AJ uchun og'ir kechdi. Ilgari muntazam bajarilib kelingan ishlab chiqarish rejalari – po'lat eritish, ayniqsa, prokat mahsulotlari



ishlab chiqarish ko'rsatkichlari pasayib bordi. Natijada korxona daromadlari ham kamaydi. 2025-yilda yangi rahbariyat tayinlangunga qadar kombinat tobora inqirozga yuz tuta boshladi.

Bu holat, o'z navbatida, mehnat bozoriga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi: ish o'rinlari qisqardi, ayrim xodimlar esa past maosh sabab o'z xohishlariga ko'ra ishdan bo'shab ketishdi. Ishlab chiqarish sur'atlarining tushishi korxonaga bo'lgan ishonchni ham pasaytirdi.

Mazkur vaziyat fond bozorida ham o'z aksini topdi. 2022-yil aprel, may oylarida Toshkent birjasida "O'zmetkombinat" AJ aksiyalarining bir donasi taxminan 17 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda uning narxi keskin tushib, 2 800 so'mgacha pasaydi. Bu aksiyadorlar o'rtasida jiddiy savollar uyg'otdi. Biroq ayrim hollarda rahbariyat tomonidan berilgan javoblar aniqlikdan yiroq, umumiy xarakterda bo'lib qoldi.

Ko'pchilik kombinatni og'ir taqdir kutayotganini tushuna boshladi. Ayrimlar esa muammolarni xomashyo yetishmasligi bilan bog'ladi.

Ijobiy o'zgarishlar

Bu ketishda kombinatni og'ir qismat kutayotganini ko'pchilik anglay boshladi. Oramizda bu holatni "ko'pga kelgan to'y", asosiy xomashyolar yetishmasligi tufayli ishlab chiqarish rejalari izdan chiqqan, daromadlar kamaygan, deb baholaganlar ham yetarlicha edi. Biroq vaziyat 2025-yilning ikkinchi yarmida, yangi rahbariyat faoliyat boshlaganidan so'ng asta-sekin ijobiy tomonga o'zgara boshladi.

Kombinat aksiyalarining bir donasi Toshkent fond birjasida o'tgan yilgi 2 800 so'mdan hozirgi kunda 6 400 so'mgacha oshdi.



Yaxshiyamki, aksiyalar narxi pasayib borayotgan davrda ular ommaviy ravishda investorlar tomonidan sotib olinmadi. Aks holda, kombinat o'z qiymatidan ancha arzon bahoda sotilib ketishi mumkin edi. Balki investorlar uning narxi yanada tushishini kutgan bo'lishlari ham ehtimoldan xoli emas. Xalq iborasi bilan aytganda, "sal qolishiga sal qolgan ekan".

Yangi rahbariyat davrida ishlab chiqarish ko'rsatkichlarida o'sish kuzatildi. Ijobiy o'zgarishlar fond bozorida ham o'z aksini topdi: aksiyalar narxi ikki baravardan ham oshiq ko'tarildi. Bu esa investorlar ishonchi qayta tiklanayotganidan dalolat beradi.

Muhimi, korxona daromadlari



ham sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2025-yilning ikkinchi yarmida daromadlar birinchi yarim yillikga qaraganda 12 baravarga o'sdi. Bu esa amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Islohotlar

– Bu yil kombinatda 1 million 60 ming tonna metall mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bundan ham ko'p ishlab chiqarishimiz mumkin. Buning uchun metallurglarning oylik mehnat haqlarini oshirishimiz kerak, –



dedi kombinat Boshqaruvi raisi – Bosh direktor Bahodir Abdulloyev yoshlar bilan uchrashuvda. – Bunday natijaga erishish uchun yangi rahbar zo'r ishlar ekan, u kuchli rahbar ekan, deb o'ylashingiz mumkin. Yo'q unday emas. Kombinatda mendan kuchli metal-

lurklar ko'p. Har qaysi odam kombinatni yuqori darajaga yetkazishi mumkin. Agar halol ishlasa. O'zining manfaatini kombinat manfaatidan ustun qo'ymasa mana shu darajaga yetkaza oladi. Buning uchun metallurg bo'lish ham shart emas. Inson vatanparvar va halol bo'lsa bas. Vatanni sevish kerak, "O'zmetkombinat"ni sevish kerak. Bo'ldi, boshqa narsa kerak emas.

"O'zmetkombinat" Ajda boshlangan islohotlar va yangilanish jarayoni korxonani inqirozdan chiqarish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Bugungi ijobiy o'zgarishlar ertangi barqaror rivoj uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Agar boshlangan ishlarda izchilik saqlansa, kombinat nafaqat o'z mavqeini tiklaydi, balki mamlakat og'ir sanoatining yetakchilaridan biriga aylanishi shubhasiz.

Diyor ZULFIQOROV.



“YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!”

“O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Bayram tadbirlari aprel oyidan boshlanadi.

Jumladan, qarorga ko‘ra, “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” g‘oyasi asosida bayram konsepsiyasi tasdiqlanib, tayyorgarlik va o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasi tuzildi. Ushbu komissiya hududlarda va respublika miqyosida keng qamrovli tadbirlar dasturini ishlab chiqib, uning ijrosini ta‘minlaydi.

Hujjatda aprel–sentabr oylarida respublika bo‘ylab “Mustaqillik to‘yi” festivali doirasida ma‘naviy–ma‘rifiy tadbirlar, ijtimoiy loyihalar va uchrashuvlar o‘tkazilishi nazarda



tutilgan. Shuningdek, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan asosiy bayram tadbirlariga taniqli ijodkorlar va san‘at vakillarini jalb etish rejalashtirilgan.

Qarorga muvofiq, mustaqillikning 35 yilligi arafasida yirik sanoat, madaniyat, ta‘lim va sport obyektlarini ishga tushirish marosimlari tashkil etiladi. Bundan tashqari, “Vatan fidoyilari” ramziy monumenti loyihasi ishlab chiqilib, kelgusida hududlarda barpo etiladigan bog‘larda o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan.

1-avgustga qadar har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning natijalari va erishilgan yutuqlarga bag‘ishlangan “Mustaqillik zafarnomasi” maxsus kitob–albomi tayyorlanadi. Markaziy bank 1-sentabrgacha “Mustaqillikning 35 yilligi” esdalik oltin tangasini zarb etishi belgilangan.

STRATEGIK HAMKORLIK

“O‘zmetkombinat” va Tojikiston metallurgiya sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ikki tomon o‘rtasida strategik sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan muhim memorandum imzolandi.

YANGI BOSQICH

Mazkur kelishuvga ko‘ra, kelasi yilning uchinchi choragidan boshlab “O‘zmetkombinat” qo‘shni davlatdan 300 ming tonna temir xomashyosi (TTT – to‘g‘ridan to‘g‘ri tiklangan temir) xarid qiladi. Ushbu xomashyo yuqori sifatli bo‘lib, po‘lat ishlab chiqarish jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mutaxassislar ta‘kidlashicha, TTTdan foydalanish metallurgiyada yanada ekologik toza va iqtisodiy jihatdan maqbul usuldir. Shuningdek, bu kabi xomashyoning muntazam yetkazib berilishi ishlab chiqarish barqarorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

Albatta, ushbu kelishuvning amalga oshirilishi ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishda uning ahamiyati katta.

Mazkur kelishuv “O‘zmetkombinat” uchun ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

“DOLZARB 30 KUN”

SAMARADORLIK VA OBODLIK

Metallurgiya sohasi mamlakat sanoatida yetakchi o‘rin tutadi. Unda har bir ish kuni, har bir jarayon yuqori intizom va samaradorlikni talab qiladi. Ana shunday mas‘uliyatli vazifalarni yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish muhitini yaxshilash hamda jamoada birdamlikni mustahkamlash maqsadida “O‘zmetkombinat” Ajda mart–aprel oylarida “Dolzarb 30 kun” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Mazkur tashabbus doirasida korxona hududlarini obodonlashtirish, sanitariya holatini yaxshilash va ko‘kalamzorlashtirish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Xususan, 28-mart kuni o‘tkazilgan umumkombinat hashari davomida ishlab chiqarish bo‘linmalari hududlari va ochiq maydonlar tozalandi, tartibga keltirildi. Shuningdek, daraxt va manzarali o‘simliklar ekilib, yashil hududlar yanada obod ko‘rinishga keltirildi. Hasharda qatnashganlarga bir kunlik ish haqi ikki baravar miqdorda to‘lanishi belgilandi. Bu kabi tadbirlar nafaqat ish muhitini yaxshilash, balki jamoada hamjihatlik va mas‘uliyat tuyg‘usini oshirishga xizmat qilmoqda.

Loyiha doirasida infratuzilmani rivojlantirish ishlari ham e‘tibordan chetda qolmayapti. Jumladan, kombinat boshqaruvi binosi hovlisidagi favvoralar qayta

ta‘mirlanib, ishga tushirildi, atrof-muhit esa zamonaviy ko‘rinishga keltirilmoqda. Bu esa korxonada ishlaydigan har bir xodim uchun qulay va chiroyli muhit yaratishga qaratilgan amaliy qadamdir.

Shuningdek, “O‘zmetkombinat” AJ hududida “Yoshlar bog‘i” barpo etildi. Mazkur loyiha doirasida korxona hududida zamonaviy, qulay va ekologik jihatdan barqaror dam olish maskani yaratildi.

Ushbu bog‘ oddiy hordiq maskani emas, balki tabiat va inson uyg‘unligi mujassam topgan, har bir niholi umid, har bir go‘shasi ilhom bag‘ishlaydigan betakror yashil makondir.

“Dolzarb 30 kun” loyihasi ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlash, resurslardan oqilona foydalanish va ichki intizomni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Ushbu tashabbus orqali korxona faoliyatini yanada tizimli va samarali yo‘lga qo‘yish maqsad qilingan.

Bu loyiha nafaqat qisqa muddatli aksiya, balki uzoq muddatli rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim tashabbusdir. U ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, korxona hududini obod va ozoda saqlash hamda jamoada birlikni kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

G‘ayrat SALIMOV.

SO‘RAGAN EDINGIZ...

ISHDAN BO‘SHATISH TARTIBI QANDAY?

Sog‘liq sababli xodimni ishdan bo‘shatishda Mehnat kodeksi qanday tartibni belgilaydi? Ish beruvchi qaysi moddalarga asoslanishi kerak?

Karima Alimova.

Sog‘liq holati tufayli mehnat shartnomasini bekor qilish tartibi Mehnat kodeksida aniq belgilangan bo‘lib, u bir nechta moddalar o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilishini talab qiladi.

Jumladan, mazkur holat Mehnat kodeksining 143-moddasi ikkinchi qismi hamda 155-moddasi ikkinchi qismi 8-bandiga asosan huquqiy asos sifatida nazarda tutilgan. Biroq ushbu normalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ishdan bo‘shatish deb talqin qilish to‘g‘ri emas.

Avvalo, Mehnat kodeksining 143-moddasi birinchi qismiga muvofiq, agar tibbiy xulosaga ko‘ra xodim o‘z vazifasini bajara olmasa, ish beruvchi unga sog‘lig‘iga mos keladigan boshqa doimiy ishni taklif qilishi shart. Bu ish xodimning malakasi va mutaxassisligiga mos bo‘lishi lozim, bunday imkoniyat bo‘lmagan taqdirda esa boshqa, hatto malaka talab etilmaydigan ish ham taklif qilinishi kerak.

Shu bilan birga, Mehnat kodeksining 144-moddasi beshinchi qismiga ko‘ra, taklif etilayotgan ish xodim sog‘lig‘iga zid bo‘lmasligi shart va tibbiy xulosada ko‘rsatilgan cheklovlar to‘liq hisobga olinishi lozim.

Faqat shu talablar bajarilgandan so‘nggina ikkinchi bosqichga o‘tish mumkin. Agar xodim taklif qilingan ishni rad etsa yoki ish beruvchida umuman mos ish mavjud bo‘lmasa, Mehnat kodeksining 143-moddasi ikkinchi qismiga asosan mehnat shartnomasi bekor qilinadi. Bu holat 155-moddaning ikkinchi qismi 8-bandi bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, qonun ishdan bo‘shatishdan oldin xodimni boshqa ish bilan ta‘minlash choralari ko‘rishni majburiy talab sifatida belgilaydi. Faqat barcha imkoniyatlar tugagandagina mehnat shartnomasini bekor qilishga ruxsat beriladi.

Inomjon ESHONQULOV, huquqshunos.

MANFAATLAR TO'QNASHUVI

ALOHIDA E'TIBORNI TALAB QILADI

Manfaatlar to'qnashuvi masalasi bugungi kunda nafaqat korporativ boshqaruv, balki barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalari faoliyatida shaffoflik, adolat va ishonch muhitini ta'minlashda ushbu masalaning ahamiyati yanada ortadi.

O'TGANLAR OXIRATI
OBOD BO'LSIN!

Chuqur qayg'u va izzat bilan ma'lum qilamizki, hamkasbimiz, do'stimiz va o'z ishining haqiqiy mutaxassisi Xalilov Bahodir Xalilovich 73 yoshida vafot etdi.

Bahodir Xalilovich uzoq yillar davomida Prezident apparatida, iqtisodiyot vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri o'rinbosari lavozimlarida hamda O'zbekiston metallurgiya kombinat vakolatxonasi rahbari sifatida faoliyat yuritgan.

So'nggi yillarda u O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi raisi o'rinbosari lavozimida ishlab kelgan. Bu davrda u o'zini nafaqat malakali mutaxassis, balki mehribon, halol va mas'uliyatli inson sifatida namoyon etdi. U doimo boshqalarga yordam berishga tayyor edi. Mehnatsevarligi, teran fikrlashi va oqilligi bilan jamoa orasida katta hurmatga sazovor bo'lgan edi.

Bahodir Xalilovichning vafoti butun jamoamiz uchun o'rni to'ldirib bo'lmas yo'qotishdir. Biz uni doimo ajoyib inson va o'z ishining haqiqiy ustasi sifatida yodda saqlaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi jamoasi Bahodir Xalilovichning oila a'zolariga, yaqinlariga va do'stlariga samimiy hamdardlik bildiradi.

Bahodir Xalilovichning yorqin xotirasi qalblarimizda abadiy saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi.

O'zbekiston metallurgiya kombinatida barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni samarali boshqarish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday qaror qabul qilish jarayonida xolislik va obyektivlik saqlanmasa, bu nafaqat korxona nufuziga, balki uning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvi ayrim hollarda oshkora ko'rinishda namoyon bo'lsa, ba'zan yashirin tarzda yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, uni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri boshqarish alohida e'tiborni talab qiladi.

Amaliyotda manfaatlar to'qnashuvining bir qator turlari uchraydi. Masalan:

- xodimning qarindoshlari yoki yaqin tanishlari ishtirok etgan kompaniyalar bilan shartnoma tuzish jarayonida ishtirok etishi;

- shaxsiy biznes manfaatlari bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishi;

- xizmat vazifasidan tashqari faoliyat orqali manfaat orttirishga urinishi;

- maxfiy ma'lumotlardan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish.

Bunda y

holatlar korxonada adolat tamoyillarining buzilishiga, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning ortishiga va jamoada ishonch muhitining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois, kombinatimizda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi yo'lga qo'yilgan. Avvalo, korporativ boshqaruvning asosiy hujjatlaridan biri sifatida Axloq kodeksi hamda kombinatning Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom qabul qilingan bo'lib, unda xodimlar uchun aniq qoidalar va me'yorlar belgilab berilgan. Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ular haqida xabar berish va bartaraf etish mexanizmlari mustahkamlab qo'yilgan.


Kombinatimizda xodimlar ishga qabul qilinishida va xizmat faoliyati davomida manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki yo'qligi yuzasidan deklaratsiyalar taqdim

etish amaliyoti joriy etilgan. Bu esa ehtimoliy xavflarni oldindan baholash va tegishli choralar ko'rish imkonini beradi.

Albatta, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish faqat ichki nazorat bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu jarayonda har bir xodimning shaxsiy mas'uliyati, vijdoni va halolligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki eng mukammal tizim ham inson omilisiz samara bermaydi.

Manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish korxonaning uzoq muddatli barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro standartlarga mosligi uchun muhim omil hisoblanadi. Bu orqali biz nafaqat ichki jarayonlarni takomillashtiramiz, balki tashqi manfaatdor tomonlar - investorlar, hamkorlar va jamoatchilik ishonchini ham mustahkamlaymiz.

Botir RUSTAMOV,
Barqaror rivojlanish
departamenti direktori.



FAXRIYLAR TAKLIF QILADI

QALBGA MUHURLANGAN MASKAN

Ko'p yillar davomida "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida sidqidildan mehnat qilib, bugungi kunda nafaqa gashtini surayotgan insonlar uchun bu korxona shunchaki ish joyi emas - u hayot maktabi, taqdir yo'lining ajralmas bir qismi, qalbga muhurlangan maskan hisoblanadi. Inson yoshlikda kuch-quvvatga to'la, orzu-umidlarga boy davrlarini aynan shu dargohda o'tkazar ekan, yillar o'tib o'sha mehnat qilgan joylar yanada aziz, yanada qadrdon bo'lib boradi.

Men ham ana shunday baxtli insonlardanman. Ko'p yillar davomida 1-navli prokat sexida (Zoldir prokatlash bo'linmasida) faoliyat yuritganman. Bugun orqaga nazar tashlasam, o'sha sexdagi har bir dastgoh, har bir mexanizm, har bir burchak men uchun go'yo tirik xotiraga aylanganday. U yerdagi shovqin-suron, temirning

yelkadoshligi - bularning barchasi mening hayotimning ajralmas qismi edi.

Bugungi kunda prokatchilar safida yoshlar ko'pchilikni tashkil etsa-da, oramizda biz kabi faxriylar bilan yelkama-yelka mehnat qilgan, o'sha davrlarni yaxshi eslaydigan insonlar ham borligi quvonarli. Chunki bu - avlodlar davomiyliigi, mehnat an'analari uzviyligi belgisidir.

Inson nafaqaga chiqqanidan so'ng, vaqt o'tishi bilan nafaqat hamkasblarini, balki ko'p yillar davomida qadam bosgan joylarini - ish xonalarini, dastgohlarni, ishlab chiqarish jarayonlarini, hatto o'sha muhitning o'ziga xos hidini, havosini ham sog'inib qoladi. Bu oddiy tuyg'u emas, bu mehnatga, o'tgan umrga bo'lgan hurmat va sadoqat ifodasidir.

qizib, shakllanayotgan jarayoni, ishchilarning bir-biriga bo'lgan

Yaqinda ana shu sog'inch tuyg'ulari meni yana kombinatga yetakladi. Qalbmida hayajon, ko'nglimda ilinch bilan o'zim mehnat qilgan sexga kirmoqchi bo'ldim. Ammo afsuski, belgilangan tartib-qoidalarga ko'ra, maxsus ruxsatnomasiz kirish mumkin emasligi aytiladi. Bu holatni tushunaman, albatta, ammo baribir qalbmida ozgina armon qoldi.

Menga o'xshagan mehnat faxriylari oz emas. Ular ham yillar o'tib, o'zlari mehnat qilgan, kamol topgan maskanni yana bir bor ko'rishni, o'z ko'zlari bilan bugungi o'zgarishlarni kuzatishni, yoshlar bilan suhbat qurishni juda istashadi.

Shu boisdan, fikrimcha, kombinat rahbariyati tomonidan faxriylar uchun vaqti-vaqti bilan maxsus ekskursiyalar tashkil etilsa, bu juda xayrli va savobli ish bo'lar edi. Bu nafaqat katta avlod vakillariga hurmat-e'tibor namunasi bo'lar, balki yoshlar uchun ham katta tarbiya maktabiga aylana edi.

Sobir YO'LDOSHEV,
mehnat faxriysi.

HIKMAT IZLAGANGA HIKMATDIR DUNYO



Bir vaqtlar bir shaharda aqli bo'lsa-da, Allohga ishonmagan, yaratilgan narsalar o'z-o'zidan paydo bo'ladi, deb iddao qiladigan bir odam bor edi. U ko'p joylarda odamlar bilan shu haqda

tortishar, bahslashardi.

U shunday derdi:

“Men ko'rmagan, ushlamagan narsaga ishonmayman.”

Bir kuni u chekka bir joydan o'tib borayotib, juda chiroyli bir soatni topib olibdi. Soat yerda uzoq vaqt yotganiga qaramay, tinimsiz va bexato ishlab turar ekan. Yigit uni qo'lga olib, uzoq tomosha qilibdi:

– Bu soat qanchalik mukammal! Ichki qismlari bir-biriga mos, strelkalari aniq harakat qiladi. Buni albatta bir zo'r usta yasagan, – debdi.

U soatga mahliyo bo'lib turgan

AQL VA IMON

paytda yonidan tanish bir qariya o'tib qolibdi. Qariya so'rabdi:

– Nima topding, o'g'lim?

Yigit javob beribdi:

– Bir soat topdim. Buni albatta bir zo'r usta yasagan, chunki u shunchalik tartibli va mukammal ishlarimda.

Qariya kulimsirab shunday debdi:

– Demak, sen shu kichik soatni ko'rib, uning ustasi borligini anglading. Endi atrofingga qara: osmon, yulduzlar, quyosh, oy, tog'lar, dengizlar, rang-barang tabiat – bularning barchasi soatdan ming marta murakkab va

mukammal emasmi?

Yigit biroz o'ylab qolibdi.

Qariya davom etibdi:

– Agar kichik bir soat o'z-o'zidan paydo bo'lmay, uni kimdir yasagan bo'lsa, undan million chandon ham ko'p buyuk va tartibli bu olam qanday qilib o'z-o'zidan paydo bo'lishi mumkin?

Yigitning ko'nglida nimadir o'zgaribdi. U avvalgi gaplarini eslab, sekin boshini egibdi:

– Demak, bu olamning ham yaratuvchisi bor...

Qariya tabassum qilibdi:

– Aql bilan qaragan odam shu haqiqatni topadi.

Diyor ZULFIQOROV.

DONOLAR BISOTIDAN

O'tgan kun qaytmas, kelajak noma'lum – demak, bugunni qadrla.

Umar Hayyom.

Bir kun kelib ochilmaydi degan gullaring ochiladi! Ketmaydi degan dardlaring ariydi! Tuganmas deb hisoblagan vaqtlaring tugaydi! Hayot shunday bir sirki: avval shukr, keyin sabr, so'ngra ishonchdir!

Jaloliddin Rumi.

Odam tabiati qiziq – boyligini yo'qotsa xafa bo'ladi-yu, umri zoye ketayotganiga parvo ham qilmaydi.

Abul Faroj.

QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

GUMON

Bir odamning ketmoni yo'qoldi. U ketmonni qo'shnining o'g'li o'g'irlagan, deb o'ylab, uni diqqat bilan kuzata boshladi: qadamlari, harakatlari, gapi, odatlari va ko'z qarashlari – hammasi uning gumonlarini tasdiqlayotgandek edi.

Biroq ko'p o'tmay u bog'da tuproq qazib yurganda ketmonini topib oldi. Ertasi kuni u qo'shnining o'g'liga yana diqqat bilan qaradi va unda hech bir o'g'rining alomatini ko'rmadi.

Bekorga aytishmaydi-da: o'g'ri bitta bo'lsa ham, gumon mingta bo'ladi.

OB-HAVO

Bir kishi qo'shnisidan so'radi:

– Bugun ob-havo qanday bo'ladi?

Qo'shnisi javob berdi:

– Menga yoqadigan havo bo'ladi.

– Ob-havo senga yoqadigan bo'lishini qanday bilding?

– Hamma vaqt nimadir o'zimiz xohlagandek bo'lmasligini tushunib, nima bo'lsa yaxshi ko'rishni o'rgandim. Shuning uchun ishonchim qat'iy: bugungi ob-havo ham aynan menga yoqadigandek bo'ladi.

Diyor ISMATOV tarjimasi.



G'ALABA BILAN BOSH LANDI

5-aprel kuni PRO-ligada mavsum start oldi. “Metallurg” birinchi turda Qo'qonda-gi “Markaziy” o'yingohda “Yaypan”ga

2-turda “Metallurg” ertaga – 10-aprelda “Respublika FA” jamoasiga qarshi maydon-ga tushadi.

SHIFOKOR OGOHLANTIRADI

TERI KASALLIKLARIDAN SAQLANING

Trixofitiya – yuqumli zamburug' kasalligi bo'lib, uni zamburug'lar qo'zg'atadi. Mahalliy tilda bu kasallik temiratki deb ham ataladi. Zamburug'larning nam, yog'ingarchilik oylarida ko'payishi va o'sishi uchun qulay sharoit mavjud bo'lgani tufayli yilning namgarchilik davrida kasallikning ko'payishi kuzatiladi.

Kasallik manbai – bemor odam yoki kasallangan uy hayvonlari hisoblanadi. Bu kasallikning quyidagi turlari farqlanadi:

Yuza trixofitiya – bosh terisi va silliq terida paydo bo'ladi. Tashqi tomondan yumaloq yaralar namoyon bo'ladi. Kasallik surunkali trixofitiya bilan og'rigan bemorlardan ular ishlatgan taroq, bosh kiyim va boshqa buyumlar orqali yuqadi. Zamburug' bosh sochlariga tushgach, 2–3 haftalik yashirin davrdan keyin tangacha kattaligidagi oqimtir yumaloq yoki ovalsimon dog'lar paydo bo'ladi.

Surunkali trixofitiya – asosan kattalar-

da uchrab, klinik ko'rinishi o'zgacha bo'ladi. Boshda chegarasi noaniq, kepaksimon po'st tashlab turuvchi oqimtir dog'lar ko'rinadi. Ular davolanmasa, kasallik manbai bo'lib qolaveradi.

Yiringli infiltrativ trixofitiya – hayvon zamburug'lari qo'zg'atadi. Kasallik buzoq, ot, sigir, qo'y va itlardan yuqadi. Hayvonlarda kasallik yengil o'tadi, lekin odamlarda og'ir kechadi. Kasallik yuqqanidan keyin 2–3 hafta o'tib bemorning bosh terisida yiringli tugunchalar paydo bo'ladi. Ular bosilganda ari uyasi-ni eslatuvchi yiringli ajralma chiqadi. Yiringli sohada sochlar osongina to'kilib ketadi.

Yuqorida keltirilgan holatlar kuzatilsa, darhol teri-tanosil kasalliklari shifokori (dermatovenerolog)ga murojaat qilishinigizni so'raymiz.

Humora RAHIMOVA,
Bekobod shahar Sanepid bo'limi
epidemiolog vrach yordamchisi.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O'zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron shaklda
oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib,
sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.